

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA TA'LIM - TARBIYA BERISHDA PEDAGOG VA OTA-ONALAR HAMKORLIGI.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 1-kurs talabasi

G'aniyeva Sevinch Sherali qizi

Annotatsiya: Ushba maqolada bola tarbiyalashda ota-ona va pedagogning o'rni. Bola tarbiyalashda ota-onaning o'z vazifalari. Maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsadi. Bola rivojlanishida oilaning hamkorligi.

Kalit so'zlar: *Maktabgacha ta'lim tashkiloti, bola, tarbiya, oila, ota-ona, hamkorlik*

Аннотация: В статье обсуждается роль родителей и педагогов в воспитании детей. Родители несут свою ответственность за воспитание ребенка. Цель деятельности дошкольной образовательной организации. Сотрудничество семьи в развитии ребенка.

Ключевые слова: Организация дошкольного образования, ребенок, воспитание, семья, родители, сотрудничество.

PEDAGOGICAL AND PARENTAL COOPERATION IN THE EDUCATION OF CHILDREN OF PRESCHOOL AGE.

G'aniyeva Sevinch Sherali qizi

1st year student of the denov

Institute of entrepreneurship and pedagogy

Annotation: The article discusses the role of parents and educators in raising a child. The responsibilities of parents in raising a child. The purpose of a preschool educational organization. Family cooperation in the development of a child.

Keywords: Preschool educational organization, child, upbringing, family, parents, cooperation

Bolaning farovonligi uning oila a'zolari va yaqinlarining Maktabgacha ta'lim tashkiloti ahamiyatini tushunishiga bog'liq. Ota-onaning ta'lim va tarbiya jarayoniga qatnashishga jalb qilinganda va o'z hissasini qo'shganda bolalar yaxshiroq ta'lim

oladilar va rivojlanadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta'lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir.

Bola asosan ona qornida tarbiya oladi. Ona homila vaqti qaysi mashg'ulot bilan ko'proq shug'ullansa bola shunga mehr qo'yadi. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdagi yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e'tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg'urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e'tiborli bo'lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo'lmaslik lozim.

Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: “Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bo'laga ilm-u adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. O'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir”. Bu fikrlar orqali qattiqqo'llik va shafqatning me'yorda bo'lishini bilish mumkin.

Davlat o'quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko'rsatadi va ta'lim va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qiladi. Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan foydalanadi. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini ochishga hissa

qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg'ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi. Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi kerak. Pedagog bolaning mustaqil harakat qilish, natijalarga erishish va yutuqlarni amalga oshirish hamda ulardan zavqlanish qobiliyatini rivojlantirishga hissa qo'shadi. Pedagog, shuningdek, bolalarda zarurat bo'lganida, har bir bola tarbiyachidan yordam va dalda olishi mumkinligiga ishonch hissining paydo bo'lishiga yordam beradi. Pedagog doimiy ravishda kasbiy kompetentligini takomillashtirish uchun o'z kasbiy faoliyatini hujjatlashtiradi, tahlil qiladi va baholaydi.

Pedagog bolaning, ota-onalarning va mahalliy jamoatchilik vakillarining fikri va tajribasini hurmat qiladi va o'z ishini teng sheriklik asosida quradi. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejizga aytilmagan. Bola uchun ota-onasi, dunyodagi eng aqlli inson qahramon, hamma narsani biluvchi shaxs hisoblanadi. Bola ota-onasida nima ko'rsa bu u uchun to'g'ri. Chunki ota-onasi bola uchun eng bilimli insondir. U juda qiziquvchan bo'ladi. Ota-onasi kitob olib o'qisa, bola kitob oladi, telefon olsa telefon oladi. Bilasizmi, nega chet elda bola tug'ulganidan ota-onasi bola yonida faqat kitob oladi? Bola asta-sekin o'zini anglab boshlagandan bola oldiga ota-ona o'tirib ikki yoniga telefon va kitob qo'yadilar va bola yonida telefonni surib qo'yib kitob oladilar va o'qiy boshlaydilar. Buni ko'rgan bola ham qiziqib telefon emas, balki kitob ushlaydi. Aslida oila tarbiyasida pedagogning o'rni davlat o'quv dasturini amalga oshiruvchi pedagog bolaning shaxsiga hurmat ko'rsatadi va ta'lim va tarbiya jarayonini dastur tamoyillariga muvofiq tashkil qiladi. Pedagog fasilitator sifatida bolalarga ta'lim va tarbiya berishda o'z bilimi, ko'nikma va resurslaridan oydalanadi. Pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtiradi, bolaning har tomonlama rivojlanishiga va uning salohiyatini

ochishga hissa qo'shadigan rivojlantiruvchi muhitni yaratadi. Buning uchun pedagog bolaning rivojlanish xususiyatlarini biladi, uning his-tuyg'ularini tushunadi, har bir bolaning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlaydi va hisobga oladi. Pedagog guruhda shunday inklyuziv muhit yaratadiki, unda har bir bola o'zini ardoqli, qobiliyatli va ta'lim jarayoniga jalb qilingandek his qilishi kerak. Shuning uchun ota-ona pedagog birgalikda bu muvozanatni ushlab turishi, hamkorlikda tarbiya berishi lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va uni amalga oshirish, qo'shimcha ta'lim xizmatlari va ota-ona hamkorligi

Bolaning maktabgacha ta'lim tashkilotida rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va uni amalga oshirishi uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti javobgar bo'ladi.

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bola va aholi ehtiyojlaridan mos ravishda tashkil etiladi.

Qo'shimcha ta'lim xizmatlari fakultativ hisoblanadi va ularni tashkil qilishda ko'ngillilar ota-ona va homiylar ishtirok etishi mumkin.

MTTda alohida ehtiyojga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlash va uni amalga oshirish uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbari javobgar bo'ladi.

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun maktabgacha ta'lim tashkiloti ota-onalar bilan o'zaro hamkorligini quyidagi shakllari tashkil qilish mumkin:

Ota-onaning maktabgacha ta'lim haqidagi fikrini inobatga olish;

Ilk rivojlanish masalalaridan ota-onalariga bilim berish;

Ota-onalarni o'quv-tarbiyaviy jarayonida faol qatnashishga jalb qilish;

Ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbusini qo'llab-quvvatlash.

Ota ona bilan ishlashda quyidagi ish shakllaridan foydalaniladi.

1. Davra suhbatlari

2. Ota onalar bilan uchrashuvlar
3. Ota-onalar haftaligi
4. Bayramlar
5. Ota-ona halqasi
6. Ochiq eshiklar kuni
7. Konferensiyalar kabilar hisoblanadi

Natijalar. Ushbu tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarni o'qitish va tarbiyalashda o'qituvchilar va ota-onalar hamkorligining muhim rolini ko'rsatadi, bu ham miqdoriy, ham sifat ma'lumotlari bilan tasdiqlangan. Statistik tahlil shuni ko'rsatdiki, ota-onalari va o'qituvchilari muntazam muloqotda bo'lgan bolalarning 78 foizi ijtimoiy ko'nikmalarni sezilarli darajada yaxshilagan, shu bilan birga bunday hamkorlik minimal bo'lgan muhitdagi bolalarning atigi 45 foizi ($p < 0,05$). Bundan tashqari, kognitiv rivojlanishni baholash shuni ko'rsatdiki, ota-onalari va o'qituvchilari juda faol bo'lgan bolalar standartlashtirilgan erta savodxonlik va hisoblash testlarida kamroq hamkorlikda yordamga ega bo'lgan tengdoshlariga qaraganda o'rtacha 23% yuqori ball olgan.

Xulosa qilib aytganda, ma'lumotlar o'qituvchi va ota-onalar hamkorligining maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga o'zgartiruvchi ta'sirini ta'kidlaydi. Hamkorlik ekotizimini rivojlantirish orqali o'qituvchilar va oilalar ta'lim natijalarini sezilarli darajada oshirishlari va bolalarni kelajakdagi akademik muvaffaqiyatlarga tayyorlashlari mumkin.

Oilada ma'naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Oila sog'lom, yetuk farzandni ulg'aytirib kamol toptirishda mas'uldir. Farzandni sog'lom, yetuk, bilimli, shijoatli qilib voyaga yetkazish oilaga, ota-onaga bog'liqdir. Shuning uchun ota-onalar bolalarga e'tiborli bo'laylik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Takomillashtirilgan Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. 2022.
2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat standartlari. Vazirlar Mahkamasi 802-son qarori. 2020.
3. Qosim Xusanov “Farzand tarbiyasida ota-ona va oilaning o‘rni!”
4. Muxammadiyeva Surayyo “MTTning ota-onalar bilan hamkorligining mazmuni va uslublari” maqolasi.
5. Erta bolalik ta'limi jurnali <https://www.springer.com/journal/10643>